

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(58 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(58 KB\)](#)

## **O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 apreldagi "O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida"gi PQ-3646-sonli qarori haqida**

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 apreldagi "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PF-5392-son Farmoni talablari ijrosini ta`minlash maqsadida Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 apreldagi "O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida"gi PQ-3646-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida ko`rsatilgan qarori bilan:

a) "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" davlat unitar korxonasi tashkil qilinganligi va quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilanganligi:

belgilangan tartibda shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini tashkil etish va o`tkazishni ta`minlash;

arxitektura-rejalashtirish va shaharsozlik echimlari darajasini oshirish;

loyiha ishi va qurilish ishlab chiqarishini takomillashtirish, loyihalash va qurilish sohasida ilg`or tajribani o`rganish va ommalashtirish;

shaharsozlik faoliyati sohasida buyurtmachilar, shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiquvchilar va boshqa tashkilotlar o`rtasidagi kelishmovchiliklarni ko`rib chiqish;

o`rnatilgan tartibda akkreditatsiyadan o`tgan tadbirkorlik sub`ektlari ham ushbu bandeda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish huquqiga ega ekanligi belgilanganligi;

O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligiga bir oy muddatda "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" davlat unitar korxonasining ustavini ishlab chiqishi va uning o`rnatilgan tartibda davlat ro`yxatidan o`tkazilishini ta`minlash topshirilganligi;

b) Quyidagilar:

O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tizimining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi markaziy apparatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog`iston Respublikasi Qurilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmalarining tuzilmalari 3 va 3.1 - ilovalarga muvofiq;

qurilish bo`yicha hududiy bo`linmalar boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlarining cheklangan soni 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

v) O`zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi (keyingi o`rinlarda Vazirlik deb yuritiladi) markaziy apparatining O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan boshqaruv xodimlari cheklangan soni 81 nafar etib belgilanganligi;

g) O`zbekiston Respublikasi Qurilish vaziriga:

zarur bo`lganda, boshqaruv xodimlarining belgilangan shtatlar soni va mehnatga haq to`lash fondi doirasida Vazirlik va idoraviy mansub tashkilotlarning tuzilmasiga o`zgartirishlar kiritish;

Vazirlik faoliyatini qo`llab-quvvatlash jamg`armasi (keyingi o`rinlarda - Jamg`arma) mablag`lari hisobidan Vazirlikning qo`shimcha xodimlar shtat birliklarini kiritish;

Vazirlikka yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, etakchi loyiha institutlari, ilmiy-ta`lim muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va chet el kompaniyalarining yuqori malakali mutaxassislarini maslaxatchi sifatida jalb etish;

yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish, Jamg`arma mablag`lari hisobidan ularga ish haqi va boshqa to`lovlar miqdorini belgilash huquqi berilganligi;

d) xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori ishga qabul qilishda xodimlar ma`lumotining eng past darajasi, ishchilar kasblari bo`yicha malaka razryadlarini belgilash yuzasidan tegishli yo`nalishda xorijiy oliy ta`lim muassasalarini tamomlagan mutaxassislarga nisbatan Vazirlikda qo`llanilishi, istisno tariqasida, tavsiyaviy xarakterga ega ekanligi belgilanganligi;

e) O`zbekiston Respublikasi Qurilish vaziri, shuningdek, uning o`rinbosarlari O`zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimdan ozod etilishi;

Vazirlik tuzimidagi xodimlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ustama haqlari va qo`shimcha to`lovlardan tashqari O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Qurilish vaziri tomonidan tasdiqlanadigan qurilish sohasi xodimlari faoliyatini baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadigan mehnatdagi yuqori natijalari uchun Jamg`arma mablag`lari hisobidan quyidagi miqdorlarda rag`batlantiruvchi

to'lovlar amalga oshirilishi va unga ko'ra:

lavozim maoshiga nisbatan 50 foiz - 70 balldan 80 ballgacha to'plagan xodimlarga;

lavozim maoshiga nisbatan 100 foiz - 80 balldan 90 ballgacha to'plagan xodimlarga;

lavozim maoshiga nisbatan 200 foiz - 90 balldan 100 ballgacha to'plagan xodimlarga to'lash belgilab qo'yilganligi;

bunda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-son qarorining byudjetdan tashqari mablag'larni ishlatish qismidagi talablari Vazirlikka nisbatan joriy etilmasligi ko'rsatib o'tilganligi;

j) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda Vazirlik va Jamg'arma to'g'risidagi nizomlarni, jumladan Jamg'armaning daromad manbalarini aniqlashtirgan holda, shuningdek, Vazirlik huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiya sining tuzilmasini tasdiqlash topshirilganligi;

z) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga Vazirlikning buyurtmalari bo'yicha yuklatilgan vazifalarni ijro etish uchun jalb qilinayotgan chet el mutaxassislariga davlat boji undirilmadan ko'p martalik vizalar rasmiylashtirilishi, berilishi va muddati uzaytirilishini, shuningdek, ularni vaqtincha propiska qilish, turgan joyi bo'yicha hisobga olish hamda ularning uzaytirilishini ta'minlash topshirilganligi;

i) O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga Vazirlikning buyurtmalari bo'yicha yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun respublikaga chet el mutaxassislarini jalb qilishga ruxsatnomalar berilishini (uzaytirilishini), shuningdek, jalb qilinayotgan chet el mutaxassislariga O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga tasdiqnomalar berilishini (uzaytirilishini) ta'minlash topshirilganligi;

k) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari 5-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi;

l) Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan tasdiqlangan:

3-ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi tuzilmasini;

4 - ilovaga muvofiq qurilish bo'yicha tumanlar va Nukus shahri hududiy bo'linmalar boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlarining cheklangan soni asosida tashkiliy tuzilmalarini ishlab chiqsinlar va o'rnatilgan tartibda tasdiqlasin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining ayrim qarorlari ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi tumanlar va Nukus shahri hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'z normativ hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiq lashtirsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari A.A.Tajetdinov, Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari S.I.Nagmetov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

IZLASH



[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron](#)

[hukumat](#) [Interaktiv davlat](#)  
[xizmatlar](#)